




NAMANGAN VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAMANGAN VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2025- YIL YANVAR-FEVRAL (DASTLABKI MA'LUMOT)




Namangan viloyatining sanoat ishlab chiqarishi asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2025- yilning yanvar-fevral oylarida viloyat korxonalari tomonidan 4 217,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 109,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari (2025-yil 1-mart holatiga ko'ra)

Bugungi kunda viloyatda 3 992 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan 3 928 tasi kichik biznes subyektlaridir. Yangi tashkil qilingan korxonalar soni 102 tani tashkil etgan va u kichik biznes hissasiga to'g'ri kelmoqda.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yil yanvar-fevral oylarida viloyatimizda jami sanoat ishlab chiqarishi 4 217,6 mlrd so'mni, shundan 8,1 mlrd so'm tog'-kon sanoatiga, 3 484,0 mlrd so'm ishlab chiqarish sanoatiga 686,4 mlrd so'm elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sanoatiga, 39,1 mlrd so'm suv bilan ta'minlash kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish sanoatiga to'g'ri keldi.



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 3 484,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 82,6 % ni tashkil etdi.




Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati – 2,1 % ga o'sishi, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati – 11,5 % ga o'sishi, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 0,9 % ga kamayishi, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimining – 9,5 % ga o'sishi kuzatildi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2025- yilning yanvar-fevral oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,1 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,2 % ga to'g'ri keldi.




Namangan viloyatining ishlab chiqaradigan sanoati

Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-fevral oyilarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 484,0 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 82,6 % ini tashkil etdi.



2025- yil yanvar-fevral oylarini o'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 1,0 % ni (2024- yilning yanvar-fevral oylari da – 1,7 %), o'rtayuqori texnologiyali – 7,9 % (2024- yilning yanvar-fevral oylari da – 6,0 %), o'rtaquyi texnologiyali – 13,8 % (2024- yilning yanvar-fevral oylari da – 15,1 %), quyi texnologiyali – 77,3 % (2024- yilning yanvar-fevral oylari da – 77,2 %) ni tashkil etgan.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalardan biri to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 32,5 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 %), oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 20,1 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 97,4 %), kiyim ishlab chiqarish sohasining ulushi – 15,1 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 116,4 %), boshqa nometall mineral mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 5,0 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 120,9 %), elektr uskunalari ishlab chiqarishning ulushi – 4,9 % (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 123,5 %) ni tashkil etdi.


** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da)*



** tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra*



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-fevral oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda paxta tolasi 3949,1 tonna (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 57,2 % ga kamaygan), paxta chigiti 6460,4 tonna (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 43,4 % ga kamaygan), paxtadan yigirilgan ip 7337,0 tonna (2024- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 4,3 % ga kamaygan), paxta linti mahsulotlari 277,3 tonna (33,5 % ga kamaygan), o'simlik yog'i (tozalangan) 1385,9 tonna (50,8 % ga kamaygan), 3185,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (58,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarildi.


Sanoat mahsulotlari	2025- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Paxta tolasi, tonna	3 949,1	9 236,1	-5 287,0
Chigit, tonna	6 460,4	11 421,6	-4 961,2
Paxta linti, tonna	277,3	416,9	-139,9
Yushoq bug'doy va spelta uni, tonna	3 185,0	7 611,3	-4 426,3
Paxta yigirilgan ip tonna	7 337,0	7 667,0	-330

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,4 % va ishlab chiqarish hajmi 699,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yil yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 97,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 83,8 mlrd so'mga to'g'ri keldi



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati


To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2025- yilning yanvar-fevral oylari da to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 32,5 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 108,4 % ni tashkil etgan, ishlab chiqarish hajmi 1133,1 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari da kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,1 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 16,4 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 526,6 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,8 % ni, fizik hajm indeksi 108,8 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmi 64,3 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Elektr uskunalari ishlab chiqarish

Elektr uskunalari ishlab chiqarish – elektr energiyasini ishlab chiqaruvchi va taqsimlovchi mahsulotlar ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi. Shuningdek, bu bo'lim elektr yorituvchi, signal uskunalari va maishiy elektr asboblari ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2025- yilning yanvar-fevral oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 4,9 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 123,5 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 171,4 mlrd so'm ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya- sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

2025- yil yanvar-fevral oyilarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 686,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 16,3 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-fevral oyilarida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 0,9 % ga kamayishi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2025-yil yanvar-fevral	2024-yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	731,4	938,3	- 206,9
Issiqlik energiyasi, ming gkal	13,9	28,1	-14,2

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan 2025- yil yanvar-fevral oyilarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 39,1 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 4,6 % ga oshganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 24,8 % ga kamayganligi kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2025- yil yanvar-fevral	2024- yil yanvar-fevral	Farqi +/-
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar, ming so'm	29 946 967,0	31 041 173,0	-1 094 206,0
Oqava suvlarning shلامي - ming.so'm	1859843,0	1491100,0	368 743,0
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	7245515,0	9633261,0	-2 387 746,0

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)


Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1236,9 mlrd soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 42,1 % ni tashkil etdi. 2024- yilning yanvar-fevral oylari da kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 41,6 % ni tashkil etgan.

yanvar-fevral
mlrd soʻmda




yanvar-fevral
ulushi, % da



Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat boʻyicha 2025- yil yanvar-fevral oylari da 1361,0 ming soʻm (2024- yil yanvar-fevral oylari da 1027,1 ming soʻm), oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 106,7 %ni koʻrsatmoqda.

yanvar-fevral
ming soʻmda



yanvar-fevral
oʻsish surʼati, % da

